



O'zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy zona, kichik sanoat zona, texnopark, paxtachilik-to'qimachilik klaster tarkibiga kiruvchi tashkilot faoliyati

2019 yilning yanvar-martida **15** ta erkin iqtisodiy zona direktsiyasi mavjud bo'lib, uning tarkibidagi korxonalar soni **333** tani tashkil etadi, **71** ta kichik sanoat zona direktsiyasi mavjud bo'lib, uning tarkibidagi korxonalar soni **1119** tani tashkil etadi, **3** ta texnopark mavjud bo'lib, uning tarkibidagi korxonalar soni **37** tani tashkil etdi hamda **70** ta paxta-to'qimachilik va agro klasterlari mavjud bo'lib uning tarkibidagi korxonalar soni **70** tani tashkil etadi.

2019 yil yanvar-mart oylarida erkin iqtisodiy zona, kichik sanoat zona, texnopark, paxtachilik-to'qimachilik klaster soni, birlikda



2019 yil yanvar-mart oylarida erkin iqtisodiy zona, kichik sanoat zona, texnopark, paxtachilik-to'qimachilik klaster tarkibida tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda



Eng ko'p korxonalar kichik sanoat zonada **1119** tani va erkin iqtisodiy zonada **333** tani tashkil etadi. Shu bilan birga texnoparkda **37** ta, paxtachilik-to'qimachilik va agro klasterda **70** ta korxonalar tashkil etilgan.

2019 yil I-chorakda erkin iqtisodiy zona, kichik sanoat zona, texnopark, paxtachilik-to'qimachilik va agro klaster tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi **2339,4** mlrd. so'mni tashkil qildi;





– qurilish ishlari hajmi **93,3** mlrd. so`mni tashkil qildi;

– **1102,7** mlrd. so`mlik investitsiyalar o`zlashtirildi.



Shuningdek, korxonalarining moliyaviy hamda mehnat ko`rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar (-)) **161,8** mlrd. so`mni tashkil qildi;
- sof foyda (zarar (-)) **137,7 mlrd.** so`mni tashkil qildi;
- debitorlik qarz **3075,4** mlrd. so`mni tashkil qildi;
- kreditorlik qarz **4764,2** mlrd. so`mni tashkil qildi;
- mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni **50008** tani tashkil qildi;
- yangi ochilgan ish o`rinlari soni **15778** tani tashkil qildi.

